

BALIQ YETISHTIRISHGA IXTISOSLASHTIRILGAN XO'JALIKLARNI MOLIYAVIY QO'LLAB- QUVVATLASH MEXANIZIMLARI

Vazirov Azamat Yoqubjonovich

Ipoteka bank ATIB Namangan viloyat filiali xodim.

Bugungi kunda O'zbekistonda 5800dan ortiq baliqchilik xo'jaligi faoliyat yuritadi. Baliqchilik xo'jaliklari 63 ming hektar sun'iy suv havza maydonlarida, 537 ming hektar tabiiy suv havzalarida baliq yetishtirish ishlari tashkil etilgan.

2023-yilda lichinka ishlab chiqarishga ixtisoslashgan quvvati 390 mln dona bo'lgan 7 ta inkubatsiya sexi ishga tushirilib, ularning soni 113 taga, quvvati 5,2 mlrd donaga yetkazildi.

Baliq chavoqlarini yetishtirishga ixtisoslashgan 270 hektar maydonda quvvati 14 mln dona bo'lgan reproduktor havzalar ishga tushirilib, ularning quvvati 496 mln donaga, maydoni 7,6 ming hektarga yetkazildi.

Shuningdek, sovuq suv baliqlarini yetishtiruvchi xo'jaliklar soni 24 taga, quvvati esa 6000 tonnaga yetkazildi. Aynan shu yo'nalishda o'tgan yilda yangidan

5 ta loyihalar amalga oshirilib, 1,2 ming tonna yangi quvvatlar ishga tushirildi.

Baliqning foydali jihatlari juda ko'p. Uning mahsulotlari yuqori biologik qiymatga ega bo'lib, parhez xususiyati ega bo'lganligi uchun insonlar hayotida yaxshi oziqa hisoblanadi. Bu ne'mat aminokislotalar va "D" vitaminiga o'ta boy, uni yetarli darajada iste'mol qilish moddalar almashinuvini me'yorida saqlab turadi. Ayniqsa, balik mahsulotlari yosh bolalar aqliy rivojlanishi uchun, shuningdek, kasalliklarning oldini olishdagi ahamiyati katta.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarda aholi jon boshiga bir yilda iste'mol qilinadigan baliq go'shti o'rtacha 25-45 kilogramm bo'lib, jahon bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 22 kilogrammni tashkil etadi. Butun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti

xulosasiga ko‘ra, har bir inson bir yilda o‘rtacha 12-16 kilogramm baliq go‘shti iste’mol qilishi lozim.

Prezidentimizning topshiriqlari va imzolagan qator qarorlari asosida keyingi paytda sohada tub burilish yasaldi. Keyingi besh yilda aholi jon boshiga baliq yetishtirish dunyo sog’liqni saqlash me’yorlariga yetkazish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda..

Muhimi, bozor va do‘kon rastalarida baliq turlari, sanoat usulida ishlab chiqarilgan mahalliy tayyor baliq mahsulotlari soni va sifati oshdi. Avvallari xo‘jaliklar tomonidan asosan oq va chipor do‘ngpeshona, karp baliqlari yetishtirilgan bo‘lsa, so‘nggi yillarda xorijdan import qilinadigan forel, osyotr, losos va Afrika laqqasi singari turlarni o‘zimizda ko‘paytirish rivojlanib bormoqda.

Shu kabi qimmatbaho baliqlarni yetishtiruvchi tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida davlat byudjetidan subsidiyalar ajratilib 7 ta xo‘jalik ishga tushirildi va ular soni 20 taga, yillik ishlab chiqarish quvvati 3,5 ming tonnaga yetkazildi. Haqiqatan, tarmoqqa intensiv texnologiyalarni joriy etish 1 hektar yerdan 10-12 tonna baliq ovlash imkoniyatini beradi. Lekin bugungi kunda biz har hektar yerdan atigi 3-4 tonna baliq tutib, shu bilan chegaralanib qolyapmiz. Shu bois endilikda zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda, baliq yetishtirish va ovlash hajmini oshirish faoliyatimizning asosiy vazifasiga aylanadi.

Aholi xonadonlarida baliq yetishtirishni yo‘lga qo‘yish orqali hal etishga alohida e’tibor qaratildi. Shunday texnologiyalar mavjudki, ular yordamida har bir xonadonda bir yilda 2-2,2 tonna mahsulot yetishtirish mumkin. Shunda har bir oila 12 million so‘m daromadga ega bo‘ladi. Bu esa bandlikni ta’minalash hamda baliqchilikni yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Soha drayveti — “xonodon — kooperatsiya — klaster” usuli

Tarmoqning muhim yo‘nalishlaridan yana biri — baliqchilik klasterlari salohiyati toboro ortib boryapti. “O‘zbekbaliqsanoat” uyushmasi ma'lumotlariga ko‘ra, joriy yilda

9 ta shunday klaster faoliyati yo‘lga qo‘yilib, ular soni 35 taga etdi. Ular tomonidan hozirga qadar 29 ming tonna baliq va 14 ming tonna baliq mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumanidagi “Gold fish agro export” MCHJ joriy yildan klaster tarzida faoliyatini davom ettiryapti. Qiymati 30 milliard so‘mlik ushbu loyiha uvildiriqlarni tayyorlashdan tortib, baliq yetishtirish, qayta ishslash, yem ishlab chiqarishni qamrab olgan. Umuman, klaster yiliga 500 tonna baliq etishtirish quvvatiga ega. Shu yerning o‘zida baliqni qayta ishslash sexi, 800 tonna sig’imli zamonaviy muzlatkichlar ham bor.

Klaster katta ko‘lamdagi joyni va katta rejalarini o‘z ichiga olgan. Jami 43 gektar maydonning 4 gektarida intensiv va yarim intensiv usulda baliq yetishtiriladi. Uning rahbari Abror Narziyev intensiv baliqchilikni zamonaviy Xitoy texnologiyasi asosida yo‘lga qo‘ygan. Bunda sun’iy hovuz doimiy suv talab qilmaydi, balki o‘zidagi suvni qayta aylantirib ishlaydi.

2022 yil 1 fevraldan boshlab jismoniy shaxslarga o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida o‘z xonadonida baliq yetishtirishni yo‘lga qo‘yishga ruxsat beriladi;

2022 yil 1 fevraldan 2025 yil 1 yanvarga qadar baliqchilikni intensivlashtirish uchun zarur bo‘lgan asbob-uskunalar va texnologiyalar (aerator, basseyn, avtokormushka) hamda qayta ishslash uskunalarini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ygan, biroq daromadining 80%idan ortig‘ini ushbu uskunalarini ishlab chiqarishdan oladigan sub’yektlar uchun foyda solig‘i (tijorat banklarida joylashtirilgan mablag‘lardan olingan foizlardan tashqari), yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 50%ga kamaytiriladi;

baliq yetishtiruvchi xonadon egalariga yer solig‘i va mol-mulk solig‘i stavkasi 50% miqdorida belgilanadi.

2022 yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda baliq yetishtirish prognoz parametrlari;

2022 yilda sun'iy (ekstensiv) suv havzalarini intensivlashtirish va baliq ovlash hajmlari bo'yicha prognoz parametrlari.

"Chorvachilik sohasini barqaror rivojlantirishni moliyalashtirish" loyihasi doirasida jalg qilinayotgan kredit liniyasi hisobidan 20 mln yevro miqdoridagi mablag'lar intensiv usulda baliq yetishtirish loyihamalarini moliyalashtirish uchun yo'naltiriladi.

2022 yil 15 yanvardan boshlab "Har bir oila – tadbirkor" davlat dasturi doirasida tijorat banklari tomonidan aholi xonadonlarida baliq yetishtirish uchun ajratiladigan kredit BHMning 150 baravaridan 300 baravarigacha oshiriladi.

Markaziy bankka tijorat banklari orqali intensiv usulda aholi xonadonlarida baliq yetishtirish loyihamalarini moliyalashtirish uchun "Har bir oila – tadbirkor" davlat dasturi doirasida 2022 yilda 200 mlrd so'm mablag' ajratilishini ta'minlash topshirildi.

2022 yil 1 apreldan boshlab 2025 yil 1 yanvarga qadar jismoniy shaxslarning aholi xonadonlarida baliq yetishtirish yo'nalishi bo'yicha o'quv kurslarida o'qish xarajatlarini qoplash uchun Mahallabay ishslash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining Aholini tadbirkorlikka jalg qilish jamg'armasi mablag'lari hisobidan BHMning 2 barobaridan oshmagan miqdorda bir martalik subsidiya ajratiladi;

"O'zbekbaliqsanoat" uyushmasiga a'zo korxonalar tomonidan xorijiy mamlakatlardan baliqchilik sohasi ekspert va mutaxassislarini jalg qilish xarajatlari hamda ularning bir yillik ish haqi miqdorining 50%igacha, biroq oyiga \$1 ming ekvivalentidan oshmagan qismi Baliqchilikni rivojlantirish jamg'armasidan qoplab beriladi. Bunda mazkur xarajatlar uchun Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg'armasi hisobidan 5 mlrd so'm yo'naltiriladi.

Prezidentimiz viloyatga tashrifi chog'ida baliq yetishtirish jarayonini ko'zdan kechirib, tajribamizni ommalashtirish, aholini jalg etish yuzasidan ko'rsatmalar bergen edi, — deydi Abror Narziyev, — Davlatimiz rahbari kecha o'tkazilgan baliqchilik sohasini rivojlantirish istiqbollari va kooperatsiya asosida baliq yetishtirish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan kengaytirilgan yig'ilishda esa, Sharof Rashidov tumani tajribasi asosida kelgusi yilda 10 mingta xonadonda intensiv baliq

yetishtirish yo‘lga qo‘yilishi belgilab berildi. Buning uchun esa, klaster va xonodon egalariga katta engilliklar ham berilayotgani moliyaviy rag’bat bo‘ladi. Xususan, xonadonlarda kooperatsiya asosida yiliga 80 tonnadan ortiq baliq yetishtirgan klasterlar uch yil muddatga barcha soliqlardan ozod etiladi, uyida baliq yetishtiruvchilar uchun “Har bir oila – tadbirkor” dasturi doirasida kredit miqdori 2 barobarga oshiriladi va kelgusi yilda 400 milliard so‘m yo‘naltirilyapti, ularning er va mulk soliqlari 50 foizga kamaytirilib, o‘zini o‘zi band qilgan aholi toifasiga o‘tkazilyapti.¹

Biz bu boradagi ishlami tajriba tariqasida Sharof Rashidov, Zarbdor va Zomin tumanlarida “xonadon-klaster” kooperatsiya usulida baliq etishtirishni tashkil etib, aholi bandiligini ta’minalash borasidagi ishlarni boshlab yuborganmiz. Biz taklif etayotgan usulda yarim sotix joyda 6 oyda 1 tonnayu 200 kilogramm, 1 yilda 2–2,5 tonna baliq olish mumkin. Bu 35 million so‘m daromad degani. Talabgorlarga hovuzlarni uylariga olib borib, o‘rnatib beryapmiz.

Yiliga mingta xonadonda mazkur tamoyil asosida intensiv usulda baliq yetishtirish rejalashtirganmiz. Buning hisobiga, 2 ming nafar ishsiz fuqarolarning bandiligini ta’minalashga hamda qo‘sishma ravishda 2 ming tonna baliq etishtirishga erishishimiz mumkin.

Asosiy e’tibor — intensiv baliq etishtirishga qaratiladi

Yaqin paytgacha Farg’ona iqlim sharoitida xushtam va foydali forel baliqlari yetishtiriladi, desa ko‘pchilik ishonmasdi. Marg’ilon shahridagi “Mr fish fargona company” O‘zbekiston–Eron qo‘shma korxonasida intensiv usuldagagi parvarishlanayotgan baliqlarni ko‘rgan kishida aksincha fikr tug’ilishi turgan gap. Buning uchun maxsus ko‘llar, sovutish inshootlari qurildi. Yangi usulning o‘ziga xos jihat keng maydonda ko‘p suv sarf qilmagan holda, mo‘l va sifatli mahsulot etishtirish imkoniyati yaratilda.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-yanvardagi “Chorvachilik tarmog’ini davlat tomonidan qo’llab-quvvatlashning qo‘sishma chora-tadbirlari to‘g’risida” PQ-4576-son qarori

— Forel baliqlari xushtamligi, inson sog'ligi uchun muhim bo'lgan foydali elementlarga boyligi bilan ajralib turadi, — deydi korxona rahbari Muhamadali Sotiboldiyev. Shu kunga qadar ichki bozorga 10 tonnadan ortiq mahsulot sotdik. Havzalarimizda baliq mo'l.

Hozirda mahsulot etishtirish hajmi va sifatini oshirish, eksportga yo'naltirish borasida ish olib boryapmiz. Baliqchilik tarmog'i uchun vitaminlarga boy ozuqa ishlab chiqarish yo'nalishida yangi loyihalarni ishga tushiryapmiz. Bu yiliga 20 tonnadan ortiq baliq ozuqalari ishlab chiqarish imkoniyatini beradi.

Baliqchilik yaxshigina daromad manbai hisoblanadi. Shu bois Farg'ona viloyatida baliqchilikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bundan uch-to'rt yil oldin viloyatda 10 ming tonnaga yaqin baliq yetishtirilgan bo'lsa, o'tgan yili bu ko'rsatkich 35 ming tonnadan oshdi. Bu bejiz emas. Soha rivoji yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar, yaratilgan imtiyoz va imkoniyatlar mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish omillarida qo'l kelmoqda. Bag'dod tumanidagi "Xudoyberdi ota ko'llari" baliqchilik fermer xo'jaligi klaster tizimini yo'lga qo'ydi. Ayni kunda fermer xo'jaligi 30 hektar ko'lda baliq parvarishlamoqda. Mavsum davomida yuz tonna mahsulot yetishtiramiz, —deydi fermer Xudoyberdi Boltaboev. Sazan, oq amur hamda do'ngpeshona baliqlari tabiy sharoitni yaxshi ko'rasi. Ayni kunda havazlarni yana 20 hektarga kengaytirish maqsadida yangi ko'llarni hozirlayapmiz. Natijada mahsulot hajmi 70 tonnaga oshadi. Ko'l bo'yida sig'imi 10 tonna bo'lgan muzlatgich qurdik. Bu mahsulotlarimizni nafaqat ov mavsumi, baki yil davomida iste'molchilarga yetkazib berish imkoniyatini beradi. Shuningdek, dudlangan baliq, ikki turdag'i konserva ishlab chiqarish borasida ish olib boryapmiz.

Quva tumani "Maqsud ota baliqchilik" fermer xo'jaligi rahbari Mirkomil Kosimov 68 hektarerda baliq ko'li tashkil etdi. Mavsuda aholi dasturxoniga 160 tonna mahsulot etkazib berish niyati amalga oshyapti. Bundan tashqari, Xitoydan "Koya" baliq urug'ini olib kelib parvarishlashga qo'ydi. Ular chiroyli ko'rinishi, tez rivojlanishi bilan ajralib turadi, o'rtacha 2-2,5 kilogramm tosh bosadi. Xo'jalikda 40 tonna mahsulot saqlash ombori, yem ishlab chiqarish tarmog'i tashkil etildi. Quva-Toshloq avtomobil yo'li

bo'yicha 17 hektar maydonda baliqchilik yo'nalishida ekoturizm tashkil etishni ko'zlab turibdi. E'tiborli jihat, viloyatda bu yo'nalishlar uchun umumiyligi qiymati 40,8 milliard so'mlik 23 ta baliqchilik yo'nalishidagi loyihamalar uchun kredit ajratildi. Birgina Yozyovon tumannidagi xo'jalikla soni 70 dan oshdi. Ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari tasarrufidagi 2371 hektar havza maydonlarida xaridorgir baliq yetishtirilmoqda. Tumanda intensiv usulda baliq etishtirishni maqsad qilgan 3 ta loyiha tashabbuskorlariga 3,4 milliard so'm mablag' ajratildi.

Xulosa qilib aytganda, Sohaning istiqbol salohiyati katta. Ularni ishga solish uchun yirik baliqchilik loyihamalariga kelgusi yilda 20 million yevro yo'naltirilishi, baliqchilik xo'jaliklariga 530 milliard so'm, shundan aylanma mablag'lar uchun 200 milliard so'm kredit ajratilishi belgilandi. Moliyaviy ko'mak shu bilan chegaralanib qolmaydi, ehtiyojga qarab, bu mablag'larni ko'paytirilishi ham nazarda tutilmoqda.

Umuman olganda, sohaga kelgusi yilda 1,5 trillion so'mlik mablag' va yengilliklar berilishi ko'zda tutilmoqda.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil 6- son, 70-modda.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-yanvardagi "Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4576-son qarori, <https://lex.uz/docs/4717189>

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 12-maydagagi "Chorvachilik tarmog'iga davlat tomonidan subsidiya ajratishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 280-son Qarori, <https://lex.uz/docs/4810009>

4. Qaxramonov B.A., Mullaboyev N.R. Intensiv usulda baliq yetishtirish. -T.: 2021, 96 bet